


O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O ‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



fanining o‘quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110 000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 60111400 – O‘zbek tili va adabiyot
60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi: 60230600 – Noshirlik ishi
60230700 – Amaliy filologiy
60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik
60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliztili)
60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili)

Bilim sohasi: 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi: 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 60311000 – Sotsiologiya

Fan/modul kodi 302FA1 1 2		Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023					
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
1 va 2	Falsafa	2	2	30	16	14	0	0	30	60
	Jami:	2	2	30	16	14	0	0	30	60

1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarning Falsafa fani to'g'risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

Fanni vazifasi – talabalarga falsafiy, ilmiy va diniy bilimning tafakkur uslubining o'zgarishiga ta'siri, tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini, texnik va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyutsiyasini, madaniyat, ommaviy madaniyat va ommaviy madaniyatsizlikning o'zaro aloqasi va farqini, diniy madaniy an'analarda oila va farzand tarbiyasiga oid g'oyalarning ahamiyati, diniy bilimlarning fanatizm, dindorlik, shamanizm, terrorizmdan farqini diniy e'tiqodning yo'nalishlarini, global jarayonlar va barqaror taraqqiyot omillarining o'zaro mutanosibligini, ta'lim falsafasi va falsafa ta'limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rnini, korrupsiya nima, u qanday shakllanadi, korrupsiyani bartaraf etish yo'llari va vositalari masalasini, dunyoviy bilim va malakalarni Yangi O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni o'rgatishdan iborat.

2.FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Dunyo haqidagi eng qadimgi va zamonaviy bilimlarning mutanosibligi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning professional faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish; ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- yangi ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyatini aniqlash, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlarini bilish, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish;
- tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rnini, ekologiya, ijtimoiy ekologiya, ta'lim va tarbiya haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- dinning ijtimoiy, kommunikativ va kompensatorlik, falsafasining dunyoqarashni shakllantiruvchi va metodologik, fanning mafkuraviy, haqiqatni bilish funksiyalarining mutanosibligi;
- internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish;
- bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- kiberterrorizm, kiberbokkingga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi;
- globallashtirish va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi va unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olishi,

- tana va ruhiy sogʻlik, tafakkur xavfsizligini taʼminlash, sogʻlom turmush tarziga rioya qilish malakasi va koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.

3.OʻQUV FANI OʻQITILISHI BOʻYICHA USLUBIY KOʻRSATMALAR

Taʼlim texnologiyalari va metodlari:

- maʼruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLIISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.

Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari:

1 va 2 -semestr

Nazorat oʻtkazish muddatlari:

1va 2-oraliq hamda yakuniy nazoratlarning oʻtkazilishi muddatlari muayyan oʻquv yilida tasdiqlangan oʻquv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yigʻilishi qarorlariga asosan oʻzgartirish kiritish huquqi beriladi.

Nazoratlarni amalga oshirish tartibi:

Talabalarining fan boʻyicha oʻzlashtirish koʻrsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining **2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli** buyrugʻi bilan tasdiqlangan, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentyabrdagi 3069-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan “Oliy taʼlim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi toʻgʻrisidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

“5” baho (aʼlo) – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda qoʻyiladi.

“4”baho (yaxshi) – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda qoʻyiladi.

“3”baho (qoniqarli)– talaba olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda qoʻyiladi.

“2”baho (qoniqarsiz) – talaba fan dasturini oʻzlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega emas deb topilganda qoʻyiladi.

Yakuniy va oraliq baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

Fan boʻyicha talabaning semestr davomidagi oʻzlashtirish koʻrsatkichi 5 baholik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Oraliq nazorat: oʻtilgan mavzular boʻyicha *test* yoki *ogʻzaki* shaklda oʻtkaziladi.

Oraliq nazorat ogʻzaki oʻtkazilganda 3 tadan ogʻzaki shaklda nazariy savolni oʻz ichiga olgan variantlar asosida oʻtkaziladi. Har bir toʻgʻri javob uchun baho 2- 5 “aʼlo”. Umumiy baho har bir savolga qoʻyilgan bahoning oʻrtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho – 5 “aʼlo”. Test shaklida oʻtkazilganda 30 savol kiritiladi va ular orasidan aniq yechilgan toʻgʻri javoblarga qarab, ballar hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: o‘tilgan mavzular bo‘yicha test yoki og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Oraliq nazorat og‘zaki o‘tkazilganda 3 tadan og‘zaki shaklda nazariy savolni o‘z ichiga olgan variantlar asosida o‘tkaziladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun baho 2- 5 “a’lo”. Umumiy baho har bir savolga qo‘yilgan bahoning o‘rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho – 5 “a’lo”. Test shaklida o‘tkazilganda 30 savol kiritiladi va ular orasidan aniq yechilgan to‘g‘ri javoblarga qarab, ballar hisoblanadi

Yakuniy nazorat va umumiy baholash bo‘yicha:

ON		YaN			Baholash		
Max	Min	Max	Min	3ta og‘zakisavoli bahosi	A’lo	yaxshi	qoniqarli
5	3	5	3	5	5	4	3

5. O‘QUV MASHG‘ULOTLARI VA MUSTAQIL TA’LIM QISMI

1, 2-SEMESTR

1. Ma’ruza mashg‘ulotlari

№	Ma’ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so‘zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul) mavzusi. Falsafa			
1	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli Borliq falsafasi (Ontologiya)	<p>Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning intellektual, emotsional va ruhiy asoslari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mif, din va falsafa. Falsafaning predmeti va uning o‘zgaruvchan xarakteri. Falsafaning funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Qadimgi Sharq va G‘arb falsafasining vujudga kelishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. Hindiston falsafasining vujudga kelishi. Xitoy falsafasi. Qadimgi Yunoniston falsafasi. Qadimgi Markaziy Osiyoda falsafiy qarashlar. Teotsentrizm g‘oyasining ustivorligi. XVIII asr Yevropa falsafasining ma’rifiy xususiyatlari. Nemis klassik falsafasida tabiat, jamiyat va tafakkurning talqini.</p> <p>XX-XXI asr o‘zbek falsafasi. Jadidchilikning ma’rifatparvarlik g‘oyalari. O‘zbekistonda falsafa ilmini rivojlantirish muammolari.</p> <p>Borliq falsafaning predmeti. Ontologiya tushunchasining tahlili. Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi: Energiya borliq shakli. Okkultizm va spiritualizm borliq hodisasi. Ezoterik bilim tabiati. Olamning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi. Materiyaning substansional, substrat, genetik kontrast va atributiv konsepsiyalari. Dunyoning chekliligi va cheksizligi. Falsafa tarixida makon va vaqtga substansional va relyatsion yondashuvlar. Ijtimoiy makon. Ijtimoiy vaqt. XX asrda tabiat voqeligi: ekologik tanglik. Biosfera va noosfera uyg‘unligi. Yangi borliqning shakllanishi. Koevolyutsiya va invayronmentalizm nazariyasi.</p>	2
2	Jamiyat falsafasi va inson borlig‘i Rivojlanish nazariyasi (Dialektika)	Jamiyat haqidagi falsafiy ta’limotlar tarixi. Jamiyat paydo bo‘lishining ilmiy, iqtisodiy asoslari. Bozor munosabatlari va tadbirkorlikning tarixiy tiplari. Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, mulk va mulkchilik dialektikasi. Jamiyatning ma’naviy, ijtimoiy siyosiy tizimi. Fuqarolik jamiyati institutlari. Jamiyat rivojiga tarix falsafasi nuqtai nazaridan yondashuvlar. Tarix haqidagi konsepsiyalarning gnoseologik ontologik va aksiologik yo‘nalishlari.	2

		<p>Falsafa tarixida sivilizatsiyaga turli yondashuvlar tasnifi. Jamiyat hayotiga sivilizatsiyaning ta'siri. Sivilizatsiyaning asosiy elementlari: siyosat, madaniyat va iqtisodiyot. O'zbekistondagi siyosiy madaniyatning yo'nalishlari. Texnologik madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Madaniyatda texnikaning obrazi. Madaniyatda texnikaning funksiyasi. An'anaviy madaniyatdan kreativ madaniyat sari. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi. Submadaniyat, popmadaniyat, ekran madaniyatining tasnifi. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Dialektika rivojlanish haqidagi ta'limot. Metafizika va neometafizika, sofistika, eklektika, dogmatizm va konservatizm rivojlanish muqobillari. Rivojlanishning umumiy qonunlari va kategoriyalarining tasnifi. Aprior va aposterior tushunchasining mohiyati. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari: voqelik qonunlari, bazis va lokal qonunlar. Falsafa qonunlarining asosiy shakllari. Qarama-qarshilik va ziddiyat. Ziddiyatlarning turlari. Ayniyat va tafovut. Ziddiyatlarning turlari. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Sifat, miqdor, meyor, xossa, sakrash kategoriyalari. Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik. Falsafa tarixida kategoriyalarga turli munosabatlar. Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadis, abduksiya. Evristika yangi metodologik tamoyil. Tizim, tizimli yondashuv, tizimli tahlil tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi.</p>	
3	<p>Bilish falsafasi (Gnoseologiya) Mantiq bilish nazariyasining tarkibiy qismi</p>	<p>Bilish amaliyot ijod uyg'unligi. Falsafa tarixida bilishga oid qarashlar evolyutsiyasi. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dialektikasi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalarining o'zaro aloqasi va farqi. Haqiqat va yangilash, yolg'on va dezinformatsiya (yolg'on axborot). Amaliyot va faoliyatning mutanosibliigi. Faoliyatning tuzilishi va atributlari. Ijodiy va noijodiy faoliyat. O'yin faoliyat sifatida. Haqiqatga erishishda tushunish va tushuntirish dialektikasi. Falsafa tarixida tushunish san'ati haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Tushunishda ma'noni anglashning ahamiyati. Simvol, semiotika va dialog tushunish vositasi.</p> <p>Tafakkur - mantiq ilmini o'rganish obyekti. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Tafakkur qonunlari, ularning mazmuni va to'g'ri fikr yuritish uchun ahamiyati. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.</p> <p>Hukm tafakkur shakli sifatida. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Oddiy qat'iy sillogizm, uning tarkibi, aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Entimema. Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish. Induksiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarishning turlari. Analogiya, uning turlari. Analogiya va modellashtirish. Dalillash va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.</p> <p>Argumentlash va ishonch-e'tiqodning shakllanishi. Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiiy bilishning mantiqiy asosi. Ishonch - e'tiqodning tiplari. Isbotlash tushunchasi va tuzilishi. Isbotlash turlari. Asoslarni tanqid qilish va rad etish. Gipoteza-bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli.</p>	2

2-bob (modul) mavzusi. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi, etika va estetika

4	Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi Etika	<p>Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o‘zaro aloqasi va farqi. Barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo‘nalishlari. Migratsiya va urbanizatsiya barqarorlik va beqarorlik omili. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Pandemiya - XXI asrning global muammosi va uni bartaraf etishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg‘unligi. Global ongni shakllantirishning siyosiy zarurati. COVID-19 muammosi.</p> <p>Insoniyat tarixida tarbiya va ta‘limning rivojlanish bosqichlari. Milliy farovonlikni yaratish manbalari. Milliy ta‘lim tizimlari. Ta‘limga oid Boloniya deklaratsiyasining innovatsion xarakteri. Dunyo va O‘zbekistonda ta‘lim va tarbiya amaliyoti.</p> <p>“Etika” fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Axloqning paydo bo‘lishi. Gedonizm va evdemonizm. Tushunchalarining axloqiy ahamiyati. Axloqning paydo bo‘lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar. XXI asrda global etosfera(axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, meyorlari. Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari haqida.</p> <p>Nikoh eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy asoslari. Muomala madaniyati – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi. Muomala odobining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Asosiy axloqiy qadriyatlar. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi. Insonning kasbiy odobi. Shaxs axloqiy kamolotida ta‘lim va tarbiyaning o‘rni. Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari. “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri. Etikaning zamonaviy muammolari. Virtual olamning axloqiy masalalari. Bioetika – amaliy etikaning nazariy asosi.</p>	2
5	Estetika	<p>“Estetika” fanining obyekt va falsafiy mohiyati. “Estetika” haqidagi qarashlar tarixi. Estetika kategoriyalarining an’anaviy va zamonaviy tasnifi. Go‘zallik va uning muqobillari: hunuklik, badbusharalik, beo‘xshovlik, nomutanosiblik. Ulug‘vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Ulug‘vorlikning tubanlik, xudbinlik, sotqinlik bilan ziddiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi. Forig‘lash - fojeaviy asarning xususiyati sifatida. Kulgililik kategoriyasi. Estetika kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi. Mo‘jizaviylik, hayo(ibo-hayo) va qiziqarlilik estetika kategoriyalarini rivojlantiruvchi mezon sifatida.</p> <p>Tabiat estetikasi. Insoniyat tafakkuri tarixida tabiatga estetik munosabatning zaruriyati haqidagi qarashlar. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o‘rni. Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta’siri. Maishiy turmush estetikasi va uning texnologiyasi. Xalq amaliy san’ati va dizayn.</p> <p>Sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlari. Inson tabiiy go‘zalligi bilan estetik didning mutanosibligi: “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik didiga ta’siri. Sport va uning ma’naviy-estetik jihatlari; sport estetikasining zamonaviy ahamiyati. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta‘minlovchi omil. Reklamaning estetik xususiyatlari.</p>	2

3-bob (modul) mavzusi. Dinshunoslik.

6	Din madaniyat fenomeni Islom dini va tarixi	<p>Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya xudojo'ylik tushunchalarining ma'nosi va ularning o'zaro aloqasi. Qadimgi Misr dinlarining axloq tarbiyasidagi roli. Milliy dinlar: zoroastrizim, induizm, jaynizm, sikhizm, parsizm, konfutsiychilik, daosizm, sindo, iudaizm. Milliy dinlarning zamonaviy ko'rinishlari. Din, din falsafasi va dinshunoslik tushunchalarining ma'nosi. Dinshunoslikning kategoriyalari. Dinning strukturasi: diniy ong, faoliyat, diniy munosabat. Diniy e'tiqod va ratsionallik. Qur'onda vijdon erkinligi haqidagi dastlabki g'oyalar tasnifi. Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda vijdon erkinligi haqidagi qonun qabul qilinishining ijtimoiy madaniy ahamiyati. Buddaviylik dini. Buddizm rohiblik. Buddizm manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddizm ta'limoti.</p> <p>Xristianlikning paydo bo'lishi va asosiy yo'nalishlari: pravoslav dini, katolitsizm, protestansizm. Xristian dini konfessiyalari, ta'limotlari. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni.</p> <p>Arabistondagi islomgacha davrdagi ijtimoiy siyosiy sharoit. Muhammad sallalohu alayhi vasallamning payg'ambarlikgacha hayoti. Payg'ambarlikning Makka davri. Islomning asoslari. Islom dini farzlari. Muhammad sallalohu alayhi vasallamning vafoti va xalifalikning paydo bo'lishi. Islomning asosiy oqimlari va yo'nalishlari. Islomning asosiy diniy huquqiy maktablari. Dunyo va O'zbekistonning islomshunos olimlari. Sovet ittifoqi davrida dinga e'tiqod qilish amaliyoti. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, ularning islom madaniyatidagi o'rni va ahamiyati. Qur'on o'qish normalari. Payg'ambar va uning hadislarini; o'rganish va tarqalish jarayoni. Hadislarning strukturasi va turlari. Buyuk hadisshunoslar hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Sufiy so'zining ma'nosi va uning tarixi, asosiy g'oyalarining tasnifi. Sha'riyat va tariqat, ma'rifat va haqiqat. Pir va muridlar. Murshid va muridlar sifatleri. Markaziy Osiyo, Turkiya va Hindistonda Naqshbandiya tariqatining rivoji. Qodiriya tariqati. Sufizmning inqirozi. Sufizm va hozirgi zamon. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar talqini, ayol maqomi. Er-xotinlarning huquq va majburiyatlari. Islomda axloqiy qadriyatlar. Hijob muammo va yechim. Musulmonning ma'naviy qiyofasi, jamiyatdagi xulq atvori</p>	2
7	Diniy madaniy an'nalarning ahamiyati Diniy fanatizm va dindorlik	<p>Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli. O'zbekistonda diniy madaniyatni rivojlanish tarixi va hozirgi davrdagi ahamiyati. Diniy urf odatlarning shaxs dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri. Din insoniyat madaniy rivojining tarkibiy qismi. Diniy madaniy an'nalarning ahamiyati va ularning o'zaro ta'siri.</p> <p>Diniy fanatizmning paydo bo'lishi, magik totemizm va diniy fetishizm, shamanizm. Diniy fanatizm ekstremizmning asosi. Diniy fundamentalizm. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari. Kiberterrorizm, kiberbokking, tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy diniy harakatlarning yo'nalishlari: Iyegovo shohidlari, transsendental meditatsiyaning diniy mohiyati. Shri Chinmoya va Nirmala devi ta'limoti. Krishnaning xalqaro ong tashkiloti. Falungunlar, Sai baba ta'limoti. Radjnish xudo hayoti jamiyati. Ivanovchilar, Vissarion ta'limoti, Sayyentologiya. Dunyo va O'zbekistonda diniy ma'rifatni takomillashtirishning yo'nalishlari. Davlat va huquq tizimida din omili. Diniy tolerantlik va plyuralizm. Sekulyarizatsiya nazariyasi va postsekulyar konsepsiyalar.</p>	2

4-bob (modul) mavzusi. Korrupsiya tushunchasi va uni bartaraf qilish yo'llari			
8	Korrupsiya tushunchasi va uni bartaraf etish yo'llari. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy, g'oyaviy asoslari	<p>Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi. Diniy va ilmiy manbalarda korrupsiyaga munosabat. Dunyo bo'yicha korrupsiya holatining tasnifi. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qonunlar va ularning O'zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy - huquqiy mexanizmlari. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni.</p> <p>Korrupsiya shakllanishining sabablari. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning turlari. Siyosiy va g'oyaviy korrupsiya xavfsizlikka tahdid. Iqtisodiy korrupsiya va uning namoyon bo'lish shakllari. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Ta'lim va fan tizimidagi korrupsiyaning oqibatlarini. Ijtimoiy hayotdagi korrupsiyaning amal qilish sohalari. G'arb olimlari korrupsiya haqida. Oq, qora va kul rang korrupsiya haqida. Dunyo va O'zbekistonda korrupsiyani bartaraf etish mexanizmlari.</p>	2
Jami:			16 s.

2. Seminar mashg'ulotlar

Seminar mashg'ulotlari o'quv fanining ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish yo'li bilan va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni, uslubiy qo'llanmalarni, tarqatma va ko'rgazmali materiallarning ahamiyati kattadir. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul) mavzusi. Falsafa			
1	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli Borliq falsafasi (Ontologiya)	<p>Falsafa tushunchasining kelib chiqishi, predmeti va asosiy funksiyalari. Dunyoqarashning tuzilishi va tarixiy shakllari. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi va asosiy xususiyatlari. O'rta asr Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Uyg'onish davrida G'arb va Sharq falsafasi. Yangi davr va hozirgi zamon G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar. XX-XXI asr o'zbek falsafasi.</p> <p>Borliq. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Falsafada substansiya va materiya tushunchalari. Harakat materiyaning mavjudlik usuli. Makon va vaqt - borliqning fundamental shakllari. Tabiat falsafiy mushohada obyekt sifatida.</p>	2

2	Jamiyat falsafasi va inson borlig'i Rivojlanish nazariyasi (Dialektika)	Jamiyatning falsafiy tahlili. Tarix falsafasining tuzilishi va funksiyalari. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari va uzaro aloqadorligi. Inson haqidagi falsafiy fikrlar dinamikasi. Ong falsafasi. Ongning strukturasi va funksiyalari. Inson hayotining maqsadi va vazifalari. Borliqdagi universal aloqadorlik va o'zgaruvchanlik. Rivojlanish evolyutsiyasi. Tartiblilik va sistemaviylik. Determinizm falsafasi. Qonun tushunchasi. Taraqqiyot qonunlari. Falsafada metod, metologiya va metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi: Fan va falsafa metodlari.	2
3	Bilish falsafasi (Gnoseologiya) Mantiq bilish nazariyasining tarkibiy qismi	Insonning bilish qobiliyati. Gnoseologiya. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari. Bilishning asosiy turlari, shakllari va darajalari. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi. Haqiqatga erishishda tushunish va tushuntirish dialektikasi. Mantiq ilmini o'rganish obyekti. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari. Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va xususiyatlari. Xulosa chiqarishning tuzilish va xulosa chiqarish turlari. Argumentlash nazariyasi.	2
2-bob (modul) mavzusi. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi, etika va estetika			
4	Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi Etika Estetika	Globallashuv-ijtimoiy taraqqiyot tendensiyasi. Global muamolar. Asosiy global muammolarning tasnifi. Insoniyat tarixida tarbiya va ta'limning rivojlanish bosqichlari. Milliy ta'lim tizimlari. Zamonaviy ta'lim modellari. Etika fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi. Axloqning paydo bo'lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, meyorlari. Nikoh eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy asoslari. Muomala madaniyati – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi. Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar. Estetika" fanining obyekti va falsafiy mohiyati. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi. Inson estetik ehtiyojini qondirishning zamonaviy muammolari. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.	2
3-bob (modul) mavzusi. Dinshunoslik.			
5	Din madaniyat fenomeni Islom dini va tarixi	Din, dinshunoslik, din falsafasi tushunchalari mohiyati. Dinning strukturasi. Dinshunoslikning kategoriyalari. Milliy dinlar. Buddaviylik dinining paydo bo'lishi tarixi, asosiy ta'limotlari. Xristianlikning paydo bo'lishi va asosiy yo'nalishlari Islom dinining shakllanish tarixi va asoslari. Islomning asosiy diniy huquqiy maktablari, oqimlari va yo'nalishlari. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, ularning islom madaniyatidagi o'rni va ahamiyati. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik. Islomda axloqiy qadriyatlar talqini.	2

6	Diniy madaniy an'nalarning ahamiyati Diniy fanatizm va dindorlik	Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli. O'zbekistonda diniy madaniyatni rivojlanish tarixi va hozirgi davrdagi ahamiyati. Diniy urf odatlarning shaxs dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri. Diniy madaniy an'nalarning ahamiyati va ularning o'zaro ta'siri. Diniy fanatizmning paydo bo'lishi, mohiyati asoslari va manbalari. Diniy fanatizm ekstremizmning asosi. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari. O'zbekistondagi diniy ekstremizmning paydo bo'lishi rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash vositalari. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari. Xalqaro terrorizm. Zamonaviy diniy harakatlarning yo'nalishlari.	2
4-bob (modul) mavzusi. Korrupsiya tushunchasi va uni bartaraf qilish yo'llari			
7	Korrupsiya tushunchasi va uni bartaraf etish yo'llari. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy, g'oyaviy asoslari	Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qonunlar va ularning O'zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy - huquqiy mexanizmlari. Korrupsiya shakllanishining sabablari, Korrupsiyaning shakllari. Dunyo va O'zbekistonda korrupsiyani bartaraf etish mexanizmlari.	2
Jami:			14 s

3. Mustaqil ta'lim ishlari

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda falsafa fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- Fannig ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ma'lum mavzu bo'yicha referat yoki taqdimot tayyorlash.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul) mavzusi. Falsafa				
1	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. mohiyati va tarixiy shakllari.	ma'ruza	Falsafa fani va tushunchasining kelib chiqishi. Falsafaning predmeti va asosiy masalalari. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Dunyoqarash va uning strukturasi. Dunyoqarashning tarixiy tiplari. Falsafiy dunyoqarash. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafaning ilmiyligi	2
2	Qadimgi davr falsafasi. Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi, Qadimgi	seminar	Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Yunoniston va Rimga Ushbu davrdagi falsafiy qarashlar. Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy	2

	Hindiston falsafasi, Qadumgi Xitoy falsafasi		ta'limotlar. Veda davri (mil. avv. XV - VI asrlar). Vedalar ("bilimlar") – diniy-falsafiy yozmalar (traktatlar). Upanishadalar (sanskritcha-o'qituvchi oyog'i ostida o'tirish). Vedalarning tarkibiy qismlari "muqaddas yozuv", diniy madhiyalar ("samxitlar").Epik davr (mil. avv.VI - II asrlar), bu davrning eng mashhur manbalari – ikki poema "Maxabhorat" va "Ramayana" eposlari. Sutralar davri (mil. avv. II a. – mil.VII a.) – qisqa falsafiy yozmalar davri. O'rta asrlarda Hindiston falsafasi. Gautama-Budda – buddizm ta'limoti. Eramizdan oldingi VI-III asrlardagi falsafiy ta'limotlar. Konfutsiychilik, daosizm, moizm, legizmlar va boshqalar. II - XIX aa. – Hindistondan buddizmning kirib kelishi va milliy falsafiy maktablarga ta'siri. Xitoyni mavjud olamning markazi sifatida qabul qilish. Inson, tabiat va koinotni bir butunlik sifatida qabul qilish.	
3	Ontologiya-borliq falsafasi	seminar	Borliq falsafiy kategoriyasining mazmunini ochib beradigan qoidalar. Olamning manzarasi (Borliq). Borliqqa munosabatning xilma-xilligi. Borliqning asosiy shakllari.	2
4	Jamiyat va inson falsafasi	ma'ruza	Jamiyat va tarixning o'zgaruvchanligining falsafiy jihatlari. sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi. Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi.	2
5	Dialektika rivojlanish haqidagi ta'limot.	seminar	Dialektika – umumiy aloqadorlik va rivojlanish haqida ta'limot. Qonun tushunchasi va uning turlari. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Falsafa kategoriyalari – borliqning universal aloqalarining aksi sifatida.	2
6	Gnoseologiya – bilish falsafasi	seminar	Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm. Bilimning asosiy shakllari: kundalik amaliy bilim, o'yin vositasidagi bilim, mifologik bilim, badiiy bilim, diniy bilim, falsafiy bilim, ilmiy bilim, shaxsiy bilim ijtimoiy bilim. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika.	2
7	Sharq olamida mantiq ilmining o'rni	seminar	Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Ibn Rushd, Roziy, Jurjoniy kabi mantiqshunos olimlar faoliyati. Ibn Sinoning Kitob ash shifo asari va uning ahamiyati.	2
2-bob (modul) mavzusi. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi, etika va estetika				
8	Globallashuv va ta'lim-tarbiyaning dolzarb masalalari.	seminar	Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi. Xalqaro ta'lim tizimlari. Globallashuv davri ta'lim-tarbiya jarayonlarida kadrlar salohiyatining oshib borishi va unga qo'yilgan yangicha xalqaro talablar. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati.	2
9	Milliy axloq va uning ildizlari	ma'ruza	Milliy, diniy axloq tamoyillari. Hadislarda axloqiy tarbiya masalalari. Imom Buxoriyning "Al- adab al-mufrad asari". Turkiy xalqlar qadriyatlarida axloq. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq»	2

			asarining mazmuni.	
10	Sogʻlom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: Estetik tarbiyaning turlari va yoʻnalishlari.	seminar	Kishilarda sanʼat asarlari, badiiy ijod namunalariining estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish. Jamiyat aʼzolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuygʻusini uygʻotish. Tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuygʻu bilan munosabatda boʻlish. Maʼnaviy merosimizga hurmat hissini. Ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirishda estetikaning oʻrni.	2
3-bob (modul) mavzusi. Dinshunoslik.				
11	Din madaniyat fenomeni	maʼruza	Din, dinshunoslik, dinfalsafasi, teologiya, teosofiya xudojoʻylik tushunchalarining maʼnosi va ularning oʻzaro aloqasi.	2
12	Islom dini, uning asosiy oqimlari va yoʻnalishlari. Tasavvuf falsafasi	seminar	Muhammad paygʻambar sallallohu alayhi vasallamning hayoti. Makka davri. Madina davri. Xalifalar darida islomning jahon diniga aylanishi. Qurʼon - Islomning asosiy manbasi. Hadislar va ularning Islomda hamda musulmonlar hayotida tutgan oʻrni. Shariat - musulmon davlati qonunchiligi va ahloqiy dasturi. Islom dinining marosimlari. Islomdagi yoʻnalish va mazhablar. Soʻfiy-tasavvuf taʼlimoti Sunniy Islom yoʻnalishlari: sunniy, mutazaliy, shia. Sunniylik mazhablari: Xanafiya, shofeya, molikiya, xanbaliya. Shialik mazhablari: Ismoilika, ibodiya. Jaʼfariya, Zaydiya. Tasavvuf falsafasi va uning shakllanishi. Tasavvuf falsafasining rivojlanish bosqichlari. Tasavvuf tariqatlari Tasavvuf tariqatida “Vahdat ul –vujud” taʼlimoti. Shariat va tariqat. Tasavvufda taʼlim, tarbiya va axloq konsepsiyalari. Tasavvuf adabiyoti.	2
13	Oʻzbekistonda davlat va din munosabatlari		Davlatning din sohasidagi siyosati. Davlat va din munosabatlari. Oʻzbekistonda diniy konfessiyalar faoliyati va diniy bagʻrikenglik	
4-bob (modul) mavzusi. Korrupsiyaga qarshi kurash				
14	Korrupsiya tushunchasi va uni bartaraf etish yoʻllari.	maʼruza	Korrupsiya tushunchasining maʼnosi va shakllanish tarixi. Korrupsiyaning shakllari. Korupsiyaning turlari.	2
15	Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy, gʻoyaviy asoslari	maʼruza	Korrupsiyaning shakllari. Korupsiyaning turlari. “Komplaens”, “komplaens-nazorat” (compliance kontrol) tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish.	
Jami:				30 s.

6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI

Oʻquv rejasiga koʻra mazkur fan boʻyicha kurs ishi loyihalarini bajarish yuzasidan talabalarga topshiriqlar berish koʻzda tutilmaydi.

7. O‘QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

- 1) Falsafa. Nazarov. Q tahriri ostida. -T.: O‘FMJ nashr. 2018.
- 2) Falsafa. Ahmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
- 3) Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
- 4) Shermuhamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
- 5) Shermuhamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b
- 6) Falsafa va fan metodologiyasi. -T.: Noshir, 2009.
- 7) Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
- 8) Falsafa. Nazarov. Q ahriri ostida. -T.: Sharq, 2000.
- 9) Fanning falsafiy masalalari. (Saifnazarov va b.) -T.: “Fan” 2000.
- 10) Sharipov M. Fayzixujueva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.
- 11) Abdulla Sher. Axloqshunoslik. o'quv qo'llanma. -T.: Yangi asr avlodi. 2003
- 12) Abdulla Sher. B. Husanov. Axloq falsafasi. Nafosat falsafasi. -T.: Universitet. 2003

Qo‘shimcha adabiyotlar:

- 13) O‘zbekiston respublikasining konstitutsiyasi. Toshkent “O‘zbekiston” 2018.
- 14) Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2021
- 15) Mirziyoev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016.
- 16) Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
- 17) A. Fitrat. Tanlangan asarlar -T.:Ma’naviyat, 2010.
- 18) Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.
- 19) J. Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016
- 20) Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -T.:O‘qituvchi, 1992.
- 21) Imom G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. Ilm kitobi. -T.: G‘afur G‘ulom. 2014.
- 22) Imom G'azzoliy. Kimyoi saodat. -T.: G‘afur G‘ulom. 2014.
- 23) Sirojiddinov. Sh. Islom falsafasiga kirish. Kalom ilmi. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2008
- 24) S. Yuldashev. Antik falsafa. -Bishkek.: “Uchqun”, 1999


Axborot manbalari:

1. <http://www.philosophy.ru>.
2. <http://www.ido.rudn.ru>.
3. <http://www.filosofia.ru>.
4. <http://www.falsafa.dc.uz>.
5. <http://www.phenomen.ru>.
6. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
7. <http://www.Ziyo.net.uz>

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022. yil "08" "25."dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.


Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, psixol.f.n., dotsent

Aslonov I.N.

 (imzo)

Tuzuvchilar:

Buranov. A.K.

 (imzo)

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi.

Abduazimova. Z. A.

 (imzo)

O'zMU "Etika va estetika" kafedrasini katta o'qituvchisi, PhD.;


Taqrizchilar:

Sattorov V.N.

 (imzo)

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini dotsenti, F.f.n.;

Muhammedjanova L.A.

 (imzo)

O'zMU Etika va estetika kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor

